

## ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERGNING “QANAQA UNUTISH MUMKIN,AYT O’ZING...” SHE’RI BADIY VA G’OYAVIY TAHLILI

**Nurmaxmatova Firuza Rasulovna**

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

[feruzanurmaxmatova2005@gmail.com](mailto:feruzanurmaxmatova2005@gmail.com)

**Annotatsiya:** Aleksandr Arkadevich Faynberg XX asr o‘zbek adabiyotida inson qalbining eng nozik va dardli qatlamlarini go‘zal tasvir, nozik òxshatishlar va tabiat manzaralari yordamida hamma yoshdagi kitobxonlarga tushunarli uslubda yoritib bergan mahoratli adabiyot arboblari sanaladi. U òz taqdiri tufayli Toshkentda tavallud topib, ayni shu yerda o‘zbek adabiyotining ajralmas qismi, rus va òzbek millatlari o‘rtasidagi ko‘prik bo‘lgan. Faynberg she‘rlari asarlari bir qarashda sodda, tabiat manzaralari, kundalik voqea-hodisalar, buyumlar tasviri bilan tòlib toshgan bo‘lsa-da, bu oddiylik zahirida insonning hayot va uning mazmuni haqida òyga solib qòyuvchi chuqur falsafiy fikr-mushohadalar yotadi. Uning ijodida inson, uning qalbi, muhabbati, iztirobi va sadoqati markaziy òrin egallaydi. Shoir 1939-yil Toshkentda tug‘ilib, umrining asosiy qismini shu muhitda òtkazdi. Urushdan keyingi og‘ir, murakkabliklarga tòlgan davr, jamiyatda kuchayib borayotgan ma‘naviy izlanishlar, insoniy qadriyatlarning sinovdan òtishi uning hayotga bòlgan qarashlarini, munosabatini tamoman òzgartirib yuborgan. Faynberg o‘z ijodiyotida kòpincha insonning yolg‘izligi, qalbdagi ichki sirli og‘riqlar va sog‘inch ohanglarini kuylaydi. Bu hol tasodifan ròy bergan emas-shoir hayotga faqat reallikdagi tashqi manzaralar sifatida qaramasdan, uni ruhiy kechinmalar maydoni sifatida idrok etgan. Aleksandr Arkadevich Faynberg she‘riy uslubiga lirizm, samimiyat va ruhiy drammatizm kabi xususiyatlar xosdir. U yengil-yelpi, faqat sòzda qoladigan jumalardan kòra yurakka yaqin tabiiy ohangni tanlaydi. Uning misralarida tasvirlangan sahna ortida butun bir kino turadi. Shoir va uning nazmi uchun sevgi bir kelib

ketadigan havoyi his emas, balki insonni sinovdan o'tkazuvchi, uni aqliy va ruhiy komillikka yetaklovchi jarayonlardan biri. Shoir ijodini muntazam mutolaa qiluvchi muxlislar yaxshi bilishadiki, sevgi ijodkor san'atida ham ilhom, ham iztirob manbai sifatida gavdalanadi. Faynberg she'riyatida xotira va unutish ham asosiy mavzulardan hisoblanganligi uchun uning qahramonlari ko'pincha o'tmish bilan yuzlashadilar: eslash azobi, so'g'inch kuchi, inkor va beparvolik og'rig'i she'rlarning ichki dramtizmini kuchaytiradi. Aleksandr Faynbergning sevgi mavzusida bitilgan asarlarida lirik qahramon sevgi oldida ojiz shaxs kabi emas, chuqur his etuvchi, bu yo'lda uchraydigan har qaysi mayda tafsilotni ham ko'nglida saqlovchi inson sifatida tasvirlab beriladi. Unutish mumkin emasligi, sevgi nomi qanday atalmasin doim bir xil ma'noni anglatishi haqidagi g'oya shoir ijodidagi asosiy yo'nalishlardandir. Shu sababli shoir asarlari o'quvchilarni faqat vaqt va voqea bilan emas, balki ruhiy holat bilan o'ziga tortadi. Ushbu maqolada tahlil qilmoqchi bo'lganimiz, Faynbergning "Qanaqa unutish mumkin, ayt o'zing..." she'ri ham ijodkor she'riyatiga xos deb yuqorida ta'kidlab o'tgan xislatlarimizni o'zida mujassamlashtirgan. Maqola ushbu she'rning badiiy-g'oyaviy tahliliga bag'ishlangan.

**Abstract:** Alexander Arkadyevich Feinberg is considered one of the most skillful literary figures in 20th-century Uzbek literature, who, using beautiful images, subtle analogies and natural landscapes, illuminated the most delicate and painful layers of the human soul in a way that is understandable to readers of all ages. Due to his fate, he was born in Tashkent, and it was here that he became an integral part of Uzbek literature, a bridge between the Russian and Uzbek nations. Although Feinberg's poetic works are simple at first glance, filled with descriptions of natural landscapes, everyday events and objects, deep philosophical thoughts and observations that make one think about human life and its meaning lie beneath this simplicity. Man, his soul, love, suffering and loyalty occupy a central place in his work. The poet was born in Tashkent in 1939 and spent most of his life in this environment. After the war a difficult, complex era, growing spiritual searches in society, and the testing of human values completely changed his outlook and attitude towards life. In his work, Feinberg often sings about human loneliness, the innermost pains of the heart, and the melodies of longing. This is no coincidence - the poet

did not look at life only as an external scene of reality, but perceived it as a field of spiritual experiences. The poetic style of Alexander Arkadyevich Feinberg is characterized by such features as lyricism, sincerity and spiritual dramatism. He chooses a natural tone close to the heart, rather than light, barely audible sentences. Behind the scenes depicted in his verses is a whole movie. For the poet and his poetry, love is not a fleeting feeling, but rather one of the processes that tests a person, leading him to mental and spiritual perfection. Fans of the poet's work who regularly read it are well aware that love is embodied in the creative art as both an inspiration and a source of suffering. Since memory and forgetting are also considered the main themes in Feinberg's poetry, his heroes often face the past: the pain of remembering, the power of longing, the pain of denial and indifference create the inner drama of the poems. strengthens. In Alexander Feinberg's works on the theme of love, the lyrical hero is not depicted as a helpless person in the face of love, but as a person who feels deeply, who keeps in mind every small detail encountered on this path. The idea that it is impossible to forget, that love, no matter what name it is called, always means the same thing, is one of the main directions in the poet's work. Therefore, the poet's works attract readers not only with time and events, but also with a state of mind. Feinberg's poem "How can you forget, tell me...", which we are going to analyze in this article, also embodies the qualities that we have emphasized above as characteristic of creative poetry. The article is devoted to the artistic and ideological analysis of this poem.

**Аннотация:** Александр Аркадьевич Файнберг считается одной из самых искусных литературных фигур узбекской литературы XX века, который, используя прекрасные образы, тонкие аналогии и пейзажи, осветил самые тонкие и болезненные грани человеческой души таким образом, что это стало понятно читателям всех возрастов. По воле судьбы он родился в Ташкенте, и именно здесь он стал неотъемлемой частью узбекской литературы, мостом между русским и узбекским народами. Хотя поэтические произведения Файнберга на первый взгляд просты, наполнены описаниями природных пейзажей, повседневных событий и предметов, за этой простотой скрываются глубокие философские размышления и

наблюдения, заставляющие задуматься о человеческой жизни и её смысле. Человек, его душа, любовь, страдание и верность занимают центральное место в его творчестве. Поэт родился в Ташкенте в 1939 году и провел большую часть своей жизни в этой среде. После войны — трудная, сложная эпоха, растущие духовные поиски в обществе и испытание человеческих ценностей — полностью изменили его мировоззрение и отношение к жизни. В своих произведениях Файнберг часто воспекает человеческое одиночество, сокровенные муки сердца и мелодии тоски. Это не случайно — поэт смотрел на жизнь не только как на внешнюю сцену реальности, но и воспринимал её как поле духовных переживаний. Поэтический стиль Александра Аркадьевича Файнберга характеризуется такими чертами, как лиризм, искренность и духовный драматизм. Он выбирает естественный, близкий сердцу тон, а не лёгкие, едва слышимые предложения. За сценами, изображёнными в его стихах, скрывается целый фильм. Для поэта и его поэзии любовь — это не мимолётное чувство, а скорее один из процессов, испытывающих человека, ведущих его к душевному и духовному совершенству. Поклонники творчества поэта, регулярно читающие его, хорошо знают, что любовь воплощается в творчестве как вдохновение и источник страданий. Поскольку память и забвение также считаются главными темами в поэзии Файнберга, его герои часто сталкиваются с прошлым: боль воспоминаний, сила тоски, боль отрицания и безразличия создают внутреннюю драму стихотворений. В произведениях Александра Файнберга на тему любви лирический герой изображен не как беспомощный человек перед лицом любви, а как человек, который глубоко чувствует, который помнит каждую мелочь, встреченную на этом пути. Идея о том, что невозможно забыть, что любовь, как бы ее ни называли, всегда означает одно и то же, является одним из главных направлений в творчестве поэта. Поэтому произведения поэта привлекают читателей не только временем и событиями, но и состоянием души. Стихотворение Файнберга «Как ты можешь забыть, скажи мне...», которое мы собираемся проанализировать в этой статье, также воплощает в себе качества, которые мы

подчеркнули выше как характерные для творческой поэзии. Статья посвящена художественно-идеологическому анализу этого стихотворения.

**Kalit soʻzlar:** sheʼr tahlili, badiiy gʻoya, asosiy mazmun, lirik qahramon, obraz, badiiy tasvir vositalari, oʻxshatish, ramz, timsol, poetik til, ruhiy kechinma, ichki iztirob, sogʻinch, muhabbat mavzusi, ayriliq motivi, inkor fojiasi, dramatism, lirizm, poetik mahorat, falsafiy qarash, hayotiy haqiqat, shoir uslubi, kompozitsiya, badiiy detal, ruhiy holat tasviri, hissiy taʼsir, estetik qiymat.

**Keywords:** poem analysis, artistic idea, main content, lyrical hero, image, means of artistic depiction, simile, symbol, metaphor, poetic language, spiritual experience, inner suffering, longing, theme of love, motive of separation, tragedy of denial, dramatism, lyricism, poetic skill, philosophical outlook, life truth, poet's style, composition, artistic detail, depiction of a state of mind, emotional impact, aesthetic value.

**Ключевые слова:** анализ стихотворения, художественная идея, основное содержание, лирический герой, образ, средства художественного изображения, сравнение, символ, метафора, поэтический язык, духовный опыт, внутреннее страдание, тоска, тема любви, мотив разлуки, трагедия отрицания, драматургия, лиризм, поэтическое мастерство, философское мировоззрение, жизненная истина, стиль поэта, композиция, художественная деталь, изображение состояния души, эмоциональное воздействие, эстетическая ценность.

Aleksandr Arkadevich Faynberg qalamiga mansub “Qanaqa unutish mumkin, ayt oʻzing...” sheʼrida muhabbat, aniqroq aytganda muhabbatning unutilmasligi va inkorga uchragan qalb iztiroblari oʻz aksini topgan. Asar bir qarashda sevgi va sogʻinch tasviriga atalgandek tuyulsa ham, chuqurroq kirib borilganda u inson ruhiyatiga ogʻriq beruvchi haqiqat-bir tomonlama muhabbatni ochib beradi. Sheʼr boshida lirik qahramon xarakteri joʻshqin va keskin ohangda koʻrsatiladi: u sevgan insonini unuta olmaydi. “Qanaqa unutish mumkin, ayt oʻzing...” degan savolning oʻziyoq chuqur ichki iztirobni koʻrsatadi. Bu savol javob olish uchun berilmagan-javobi aniq, albatta unutishning imkoni yoʻq. Qahramon

uchun sevgi oddiy hodisa emas, balki toshqindek kuchli va vayronkor, jilovlab bo'lmaydigan hissiyot. U sevgan yori tomonidan aytilgan har bitta so'zni, qilingan harakatni, hatto eng kichik ko'zga ko'rinmas tafsilotlarigacha eslab yashaydi. Bu hol sevgi qahramon qalbini qay darajada zabt etganing, ildiz otib egallab olganining ifodasidir.

Qanaqa unutish mumkin, ayt o'zing!

Yonimda toshqindek bo'ladi sodir:

Qulog'imda yangrar har bitta so'zing,

Har bir harakating ko'z o'ngimdadir.

She'r davom etar ekan, navbatdagi nuqtalarda muhabbat tirik va so'nmagan holatda tasvirlanadi. "Yuragimda cho'g'i so'ngan kul emas" misrasi orqali qahramon yuragidagi tuyg'u hali hamon alangaday yonib, tug'yon otib turganini anglaymiz. Bu yerda sevgi o'tkinchi tuyg'u emas, vaqt o'tsa-da so'nmaydigan ichki olov, demoqchiday shoir. "Labing ehtirosi harorati bor" misrasi sevgi hissining jismoniy emas, ruhiy yaqinlik orqali yodga olinayotganini ko'rsatadi. Qahramon yorining haroratini, ehtirosini hanuz eslaydi. Bu uning xotiralari nechog'lik jonli va ta'sirchan ekanini ko'rsatadi. "Men sanab berurman bir-bir, basma, bas, Qachon qay ko'zguga boqqansan dildor!" satrlarida mubolag'a san'atidan mohirlik bilan foydalanilgan. Qahramon yori qay payt qaysi ko'zguga qaraganigacha eslab qolgan ekan. Haqiqiy sevgigina insonni shuqadar hushyor qilib qo'yadi, har bir lahzani muhrlaydi.

Yuragimda cho'g'i so'ngan kul emas,

Labing ehtirosi, harorati bor.

Men sanab berurman bir-bir, basma-bas,

Qachon, qay ko'zguga boqqansan, dildor!

Asarning asosiy g'oyaviy markazi "sevgi bu- sevgidir. Tengi yo'q o'zga" misrasida mujassam bo'lgan. Bu mulohazada shoirning sevgiga nisbatan qarashlari

ochiladi:sevgining qanday nomlanishining ahamiyati yo'q, u barbir mohiyatini yo'qotmaydi. Keyingi qatorlarda yana kuchli mubolag'alarni ko'rishimiz mumkin: "Har bo'sang, har ishvang dilimda, erkam." Qahramon sevganining har bir nozik harakati-yu ishvasini qalbidagi asrab yurgan ekan. "Bosgan izlaringni surtaman ko'zga" degan satrdan esa qahramon nazdida sevgining muqaddasligi-yu, yorga bo'lgan ehtiromni ko'ramiz. Uning uchun yor bosgan qadam izi ham hattoki ko'zga surtarlik darajada aziz va mo'tabar.Bu fikrlardan anglash qiyin emaski,sevganining uning tuyg'ulariga qanday munosabatda ekanidan qat'iy nazar lirik qahramon sevgisiga sodiq.Chunki bu his uning uchun oddiy tuyg'u emas hayoti mazmuniga aylanib qolgan haqiqatdir.Demak,sevgi inson qalbidagi o'zgarmas va eng oliy tuyg'udir.

Nomini o'zingcha nima desang ham,

Sevgi bu – sevgidir. Tengi yo'q o'zga.

Har bo'sang, har ishvang dilimda, erkam,

Bosgan izlaringni surtaman ko'zga.

Keying badda lirik qahramon qalbiga nishtardek sanchilib, uni o'rtayotgan sog'inch va hijron tasviri ko'rsatib beriladi.Lirik qahramon ichki dunyosi yanada oydinlashib borib,uning ko'nglidagi muhabbat iztirobi deyarli cho'qqisiga chiqqani ma'lum bo'ladi."Har kuni ming bora eslayman tushdek, yonimga shamoldek yelganlaringni" qatorlarida "ming bora" mubolag'asini ishlatish orqali undagi sog'inch hissining cheki yo'qligi,shu tufayli sevganini juda ko'p yodga olishini aytadi qahramon.'Tushdek" so'zini qo'llash orqali xotiralar lahzalik,qahramon orzu va haqiqat o'rtasida yashayotganiga ishora qiladi shoir."Shamoldek yelganlaringni" o'xshatishi esa yorning erkin va tezkor harakatini ko'rsatadi.Shamol tutqich bermagani kabi qahramonning yori ham tutqich bermas. Bu tasvir sog'inch bilan bir qatorda yo'qotish hissini ham kuchaytiradi. "Qo'msayman tog' kabi bag'rimda qushdek, Qanotingni yozib kelishlaringni" satrlaridan qahramon sevgani bilan juda yaqin bo'lgani,yori "qushdek" nozik bo'lganini anglashimiz mumkin.

Har kuni ming bora eslayman tushdek,

Yonimga shamoldek yelishlaringni.

Qo‘msayman tog‘ kabi bag‘rimga qushdek

Qanotingni yozib kelishlaringni.

So‘nggi misralarda lirik qahramonning ichki iztirobi va muhabbatning fojiaiy natijasi yoritib beriladi. Bu sahnada yor juda maftunkor, biroq beparvodek tasvirlanadi: “Kecha bir bazmda hamon gul, yulduz, Tovusdek tovlanib yurarding xandon.” Gul, yulduz va “tovusdek” so‘zlari qizning go‘zalligi, e‘tiborga yaqin ekannini ko‘rsatadi. Bu tasvir lirik qahramon ichki olamida hamon yashab kelayotgan ehtiros va sog‘inchni kuchaytiradi: yor tirik va baxtiyor, ammo bu baxtiyorlikning qahramonga bog‘liqligi yo‘q. Band davomida lirik qahramon qalbida tirik tuyg‘ular sevgilisi tomonidan inkor etiladi: “To‘satdan so‘rashdi men haqimda so‘z, - Tanimayman, kim u?-deding sen hayron.” “Tanimayman, kim u?” jumlasini muhabbatning fojiali tabiatini yoritadi. Bundan kelib chiqadiki, sevgi unutilmas bo‘lsa ham, u har doim ikki tomonlama bo‘lavermay qahramonning yori unga bir zamonlar oshiqdek tuyulgan bo‘lsa-da, aslida hamma narsa ko‘ringanidek bo‘lmagan. Inson haqiqatdan sevsa, uni hech qachon unutmaydi.

Kecha bir bazmda hamon gul, yulduz,

Tovusdek tovlanib yurarding xandon.

To‘satdan so‘rashdi men haqimda so‘z,

– Tanimayman, kim u? – deding sen hayron.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, Faynberg qalamiga mansub “Qanaqa unutilish mumki, ayt o‘zing...” she‘ri ijodkorning so‘z va tasvir vositasida ta‘sirli sahna yaratib, uni o‘quvchi ko‘z o‘ngida gavdalantira oladiga mahoratli so‘z ustasi ekanidan dalolat beradigan shoh asar. Unda shoir muhabbat bir umr unutilmasligi va ba‘zida javobsiz bo‘lishi mumkinligi haqidagi g‘oyalar ilgari suriladi. Asarning asosiy g‘oyasi shundan

iboratki, chin muhabbat tashqi javobga bog'liq emas- u inson qalbida yashashni davom ettiraveradi hatto inkor etilsa ham. Bu she'rni o'qigach kitobxonda muhabbat bobida yuz berishi mumkin bo'lgan rad etib bo'lmas hodisalar haqida qarash paydo bo'lib, she'rdagi ajoyib tasvir va o'xshatishlar uni o'quvchi qalbiga yanada yaqin qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Aleksandr Faynberg. – T.: Ijod nashr, 2021.
2. <https://yuz.uz/uz/news/aleksandr-faynbergning-yorqin-xotirasi>
3. Ruzikulova M. She'riyatda ruhiy kechinma va badiiy ifoda uyg'unligi. — “Adabiyot nazariyasi jurnali”, №3, 2022.
4. To'xtasinov A. Lirik qahramon psixologiyasi. — Samarqand: SamDU nashriyoti, 2018.
5. Sohili S. She'rlar to'plami. — Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2021.
6. <https://arm.samdhti.uz/library/download/692>